



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BO'LGAN O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA OILANING O'RNI

Nurmuhamedova Laylo Sharopovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, professori

Tilovmurodova Mohloyim

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, magistir

Annotatsiya

Ushbu maqolada alohida yordamga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida oilaning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning shaxs sifatida shakllanishi, ularning ijtimoiy hayotga moslashuvi hamda barkamol inson bo'lib yetishishida oilaviy muhitning ta'siri tahlil etilgan. Shuningdek, maxsus korreksion pedagogika, maktab, mahalla va oila hamkorligining uzviyiligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotda otanonaning pedagogik savodxonligi, korreksion ishlarni uy sharoitida tashkil etish hamda bola rivojlanishida ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqola natijalari alohida ehtiyojli bolalarni tarbiyalashda oilaning yetakchi subyekt sifatidagi rolini yanada mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: alohida yordamga muhtoj bolalar, oila tarbiyasi, korreksion pedagogika, ijtimoiy moslashuv, pedagogik hamkorlik, maxsus ta'lim, ota-ona mas'uliyati, inklyuziv ta'lim, shaxs rivojlanishi, ijtimoiy muhit.

РОЛЬ СЕМЬИ В ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ, НУЖДАЮЩИХСЯ В ОСОБОЙ ПОДДЕРЖКЕ

Нурмухамедова Лайло Шароповна

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, профессор

Тиловмуродова Мохлоим

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, магистрант

Аннотация

В статье рассматривается роль и значение семьи в процессе воспитания учащихся, нуждающихся в особой поддержке. Анализируется влияние семейной среды на формирование личности детей с особенностями развития, их социальную адаптацию и становление как гармоничной личности. Обосновывается необходимость тесного взаимодействия специальной коррекционной педагогики, школы, махалли и семьи. Особое внимание уделяется педагогической грамотности родителей, организации коррекционной работы в домашних условиях и созданию благоприятной социально-психологической среды. Результаты исследования подчеркивают необходимость укрепления ведущей роли семьи в воспитании детей с особыми потребностями.

Ключевые слова: дети с особыми потребностями, семейное воспитание, коррекционная педагогика, социальная адаптация, педагогическое сотрудничество, специальное образование, ответственность родителей, инклюзивное образование, развитие личности, социальная среда.

THE ROLE OF THE FAMILY IN EDUCATING STUDENTS WITH SPECIAL NEEDS

Nurmukhamedova Laylo Sharopovna

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Professor

Tilovmurodova Mohloyim

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Master's Student

Abstract

This article examines the role and significance of the family in the education of students with special needs. It analyzes the impact of the family environment on the personal development, social adaptation, and overall growth of children with developmental challenges. The study substantiates the importance of cooperation between special corrective pedagogy, school, community (mahalla), and family. Special attention is given to parental pedagogical literacy, organizing corrective activities at home, and creating a positive socio-psychological environment for child development. The findings emphasize the need to strengthen the leading role of the family in raising children with special needs.

Keywords: children with special needs, family education, corrective pedagogy, social adaptation, pedagogical cooperation, special education, parental responsibility, inclusive education, personality development, social environment.

Maxsus korreksion pedagogika umumiy pedagogikaning tarkibiy qismi bo'lganligi uchun bu vazifalar ushbu sohaning ham ustuvor vazifalariga aylandiki, ularning amalga oshirilishi maxsus pedagogikani oilaviy tarbiya va ijtimoiy tarbiya bilan uzviy bog'lashning yangi usul va yo'llarini izlab topish, bu yo'lda ilmiy-amaliy izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Davlat va jamiyat taraqqiyoti, uning istiqboli shu davlat, shu mamlakatda yashovchi fuqarolarning jismonan baquvvat va sog'lom bo'lishi bilan belgilanadi. Yaxshi orzu-umidlar bilan kutilayotgan farzandning nosog'lom, nogiron tug'ilishi esa har qanday oila uchun fojidadir. Oila va oilaviy munosabatlari, ayniqsa, ota-ona va farzandlar o'zaro aloqalari jamiyat yuzaga kelgan ilk davrlardan buyon eng muhim muammolardan biri bo'lib kelgan.

Jamiyat rivojlanib borgan sari bu muammoning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Chunki insoniyat tomonidan erishilgan yutuqlar aynan oila muhitida, ota-ona va farzandlar munosabatlari tizimida, boshqa har qanday ijtimoiy institutlar orasidagi uzviylik sifatida olib qaralganda, ko'proq darajada o'zlashtiriladi va an'ana, ma'naviy meros tarzida avloddan avlodga o'tadi. Shunday ekan, u yoki bu jamiyat, xalq va millatning istiqboli ko'p jihatdan shu munosabatlarning holatiga bog'liq. Buning uchun esa oiladagi ichki muhitning har tomonlama sog'lom, ma'naviy mustahkam bo'lishiga erishish lozim. Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning ta'lim olish jarayonini isloh qilib borish, rivojlanish darajasidan qat'i nazar, har bir davlat va jamiyat oldida turgan masaladir. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyo miqyosida nogiron bolalar ko'rsatkichi 450 millionga yaqin. YUNESKO ma'lumotlariga qaraganda esa, ular orasida alohida yordamga muhtoj bolalar hammasi bo'lib 200 million atrofida ekan. Bu esa ijtimoiy tarbiya bilan oilaviy tarbiyani mazmunan uzviy bog'lash zaruratini keltirib chiqaradi.

Adabiyotlar tahlili

Alohida yordamga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalashda oilaning o'rni va korreksion-pedagogik yondashuv masalalari bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida oilaviy tarbiya, maxsus ta'lim va ijtimoiy moslashuv o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asosiy yo'nalish sifatida ko'zga tashlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida baholanib, farzand tarbiyasida hal qiluvchi omil ekani ta'kidlanadi [1, 2]. Shuningdek, konstitutsiyaviy va normativ-huquqiy hujjatlarda alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarga teng imkoniyatlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan [3, 4].

Ilmiy adabiyotlarda alohida yordamga muhtoj bolalarning nutqiy va psixologik rivojlanish xususiyatlari ham keng o'rganilgan. Xususan, aqli zaif bolalarning nutqiy tayyorgarligi va uni aniqlash metodlari bo'yicha ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan [5, 23-b.]. Oila sharoitida nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari esa L. Sh. Nurmuhamedova tadqiqotlarida chuqur yoritilgan bo'lib, unda oilaning korreksion jarayondagi o'rni asoslab beriladi [6, 23-b.]. Shuningdek, nogiron bolalarni tarbiyalashda oila va maxsus muassasa hamkorligi ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilingan [7, 228-b.].

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlarni tashkil etishda ota-

onalar va defektologlar hamkorligi muhimligi ham ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan [8]. Maxsus metodika, jumladan, matematika o'qitish jarayonida korreksion yondashuvlar ishlab chiqilgan [9, 104-b.], shuningdek, yordamchi maktablarda o'qitish uslubiyoti ham batafsil o'rganilgan [10, 238-b.].

Oligofrenopedagogika asoslari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar esa maxsus ta'limning nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi [11]. Pedagogik-psixologik diagnostika va maxsus psixologiya sohasidagi ishlarda esa bola rivojlanishining individual xususiyatlarini aniqlash va unga mos ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish muhimligi ta'kidlanadi [12, 13].

Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan oila, psixologik muhit va ijtimoiy moslashuv masalalari keng o'rganilgan bo'lib, bu borada Shomaxmudova va Nurmuhamedova tomonidan tayyorlangan ilmiy-uslubiy qo'llanma alohida ahamiyatga ega [15, 78-b.]. Shoumarov tomonidan esa maxsus maktab bitiruvchilarining oilaviy va ijtimoiy muammolari tahlil qilingan [16, 516-b.].

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar alohida yordamga muhtoj o'quvchilarni tarbiyalashda oilaning hal qiluvchi o'ringa ega ekanligini, shuningdek, oila, maktab va maxsus muassasa hamkorligi samaradorlikni oshirishning asosiy omili ekanligini ko'rsatadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda alohida yordamga muhtoj o'quvchilarni tarbiyalashda oilaning o'rni masalasini yoritishda nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'unligi asos qilib olindi. Tadqiqot jarayonida pedagogik, psixologik va maxsus ta'limga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish, umumlashtirish hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, kuzatish va suhbat metodlari orqali oila va maktab hamkorligining amaldagi holati o'rganildi. Olingan ma'lumotlar asosida alohida ehtiyojli bolalarni tarbiyalash jarayonida oilaviy muhitning ta'siri va korreksion-pedagogik yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilindi.

Natijalar

Respublikamiz hukumati rivojlanishida muammolari bo'lgan, alohida yordamga muhtoj bolalarning barcha sog'lom tengqurlari qatori tarbiyalanishlari, aqliy, axloqiy, jismoniy jihatdan kamol topishlari, ijtimoiy hayotga mustaqil, yetuk fuqarolik darajasida tayyor bo'lib yetishishlari masalalariga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Bularni amalga oshirishda oilaning mas'uliyati juda katta. Bolaning to'laqonli va barkamol rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishi uchun u oilada baxtlik, sevgi, tushunish muhitida o'sishi muhim. Bu, ayniqsa, alohida yordamga muhtoj bola uchun zarurdir. Chunki bunday bola o'zining yaqinlari tomonidan alohida e'tibor va yordamga muhtoj bo'ladi.

Oilaviy hamda avlodlararo munosabatlar masalalarini o'rganish borasida ilmiy tadqiqot ishlari so'nggi yillar mobaynida butun dunyo miqyosida jadal tus olib bormoqda. Jumladan, chet el psixolog va sotsiolog olimlaridan Fransiyada A. Villi, E. Dyurkgeym, P. Jane, Germaniyada T. Shrayber, Amerikada K. Byuler, V. Metyuza, J. Bruner, S. Xoll, U. Djeyms, D. Cheyni, Shveysariyada E. Klapared va boshqa ko'plab tadqiqotchilar tomonidan bu sohada bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Sobiq ittifoq pedagog, psixolog va sotsiolog olimlari N. N. Obozov, V. A. Sisenko, A. N. Leontev, I. E. Alyoshina, N. I. Gubanov, V. N. Sokolova, G. Y. Yuzefovich, D. V. Kolesov, N. V. Silverova, N. N. Tolstix, A. G. Shmelev, T. Karsev, E. Goffman, V. G. Vlastovskiy, A. V. Baranov, P. F. Lesgaft va boshqalar ham bu borada ma'lum ishlarni amalga oshirganlar. Hozirgi kunda bu masalaga e'tiborning ortib borayotganligi o'zbek psixolog olimlari oldiga hal qilinishi lozim bo'lgan ko'plab muammolarni qo'yimoqda. Bu borada respublikamiz psixolog olimlaridan M. G. Davletshin, G'. B. Shoumarov, E. G'oziyev, B. Qodirov, R. I. Sunnatova, E. N. Sattorov, N. A. Sog'inov, Sh. A. Do'stmuhammedova, Z. T. Nishonova, F. A. Akromova, Sh. Sh. Jo'rayeva, M. Utepberganov, R. A. Samarov va boshqalarning ishlari e'tiborga loyiq. Maxsus pedagogikada bu yo'nalishda L. Sh. Nurmuhamedovaning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etgan.

Yordamga muhtoj bo'lgan bola bilan uy sharoitida korreksion-pedagogik ishlarni amalga

o'shinish, bola shaxsini rivojlantirish va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan uslubiy-pedagogik yondashish, turli xil mashg'ulotlarni o'tkazish, oila a'zolari va nuqsonli bola o'rtasida o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, nuqsonli bola kelajakda o'z hayotiy o'rnini topa olishiga qaratilgan korreksion-pedagogik ishlarni amalga oshirishda oila, maktab va mahalla hamkorligi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotlarni o'rganish va ularni tahlil etish natijasida oilada yordamga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash jarayoni tizimli yondashishni talab qiladigan o'ta murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-pedagogik muammodir, degan xulosaga keldik. Yordamga muhtoj bo'lgan o'quvchilarga tarbiya berish darajasini oshirish uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida oila va maktabning o'zaro hamkorlikda va izchil olib boriladigan faoliyatiga bog'liq. Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan davrni sarhisob qilsak, hukumatimiz tomonidan inson manfaatlarini ko'zlash va himoyalash jarayonida jamiyatimizning alohida yordamga muhtoj qatlamiga jiddiy e'tibor qaratib kelinayotganini kuzatamiz. BMTning bolalar muammolari bilan shug'ullanuvchi YUNISEF tashkilotining ijtimoiy monitoring natijalarida ham O'zbekiston bu borada o'ziga xos yutuqlarga erishayotgan davlatlardan biri ekanligi ko'rsatiladi. Respublikamiz hukumati tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy islohotlarda yosh avlodning tarbiyasi, xususan, uning oilaviy tarbiyasiga munosib omil sifatida qaraladi.

Yordamga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning boshqa barcha fuqarolar bilan teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash, ularning turmush faoliyatidagi cheklanishlarni bartaraf etish, to'laqonli hayot kechirishlariga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy turmushida faol qatnashishlariga, shuningdek, o'zlarining fuqarolik burchlarini bajarishlariga imkon beradigan qulay shart-sharoitlar yaratish davlatimiz insonparvarlik siyosatining asosiy mazmunini tashkil etadi. Yordamga muhtoj bo'lgan bolalar tarbiyasi muammolarini ijobiy hal etishda Markaziy Osiyoda yashab o'tgan allomalarning tarbiyaga oid pedagogik qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, Abu Ali Ibn Sinoning "Ishorat", "Donishnoma", "Hayy ibn Yaqzon", "Salomon va Ibsol", "Tib qonunlari", "Tadbir ul-manozil" kabi asarlarida tarbiyaning barcha shakllariga oid qarashlar mavjud. Bu qarashlar yuz yillar davomida avloddan avlodga o'tib, bolalarni tarbiyalash uchun maktab bo'lib kelmoqda. Abu Ali Ibn Sinoning yaxshilik va yomonlik tushunchalariga bo'lgan munosabati Forobiy va Beruniylar fikriga hamohang bo'lib, u ham irsiyat, muhit va tarbiyaning ta'siri bola tarbiyasi uchun birdek muhim deb hisoblaydi. U yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, muhit va odatlanish natijasida vujudga kelishini qayd qilib o'tadi. Abu Ali Ibn Sino oilada, maktabda bolani ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda mehnatsevarlikni shakllantirishga alohida urg'u berib, ota-onalarni farzandlariga kasb-hunar o'rgatishga da'vat etadi, mehnatni ulug'laydi. Mehnatsiz hayot kechirishning bolaga bo'lgan salbiy ta'sirini ko'rsatib beradi. Ayniqsa, Abu Ali Ibn Sinoning aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyaning birligi hamda ularni amalga oshirish yo'llari haqidagi fikrlari bugungi kunda ham ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda va ma'naviy qadriyat sifatida e'tiborga loyiqdir.

Muhokama

Abu Ali Ibn Sinoning ta'lim berishicha, axloqiy ravnaq inson zotigagina xos jarayondir, chunki u aql-tafakkurning buyuk quvvatiga tayangan holda haqiqat bilan yolg'onning chegarasini aniqlabgina qolmasdan, do'stni dushmandan ajrata oladi. Narsalarning ichki mohiyat-mazmunini kashf etish uchun aqliy-intellektual yetuklik zarur bo'lsa, axloqiy ravnaq uchun esa buning o'zi yetarli emas. Bilim bilan pok xulq-atvor, sa'y-harakatlarning o'zaro uyg'unligi insonni donishmandlik, komillik darajasiga eltadi. Bunga hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas, chunki "go'zallik va axloqiy kamolotga intilish inson zotiga xos xususiyatdir".

Odamlar aslida yaxshi xulq, tayyor shaxsiy sifat, odat va ko'nikmalar bilan tug'ilmaydilar. Bunday xususiyatlar ularning ijtimoiy hayotida sekin-asta shaxsiy va o'zgalar tajribasi, ota-onalari, ajdodlar an'analari, ta'lim-tarbiya ta'sirida shakllana boradi. Tarbiya jarayonida bolalarga yaxshi ijobiy odatlarni singdirib borish, ishtiyoq va qiziqishlarini sinchkovlik bilan payqab olishga harakat qilish, hayotda nafi tegadigan muayyan kasb-hunar va san'atni egallashga yo'naltirish zarur. "Bolaning tana bo'g'inlari barqarorlashgan, uning tili to'g'ri-ravon

gapirish va quloqlari tinglash qobiliyatiga ega bo'lgan va o'zgaralar so'zlarini qabul qilish hamda o'rganilayotgan narsaga tabiiy moyillik paydo bo'lgan paytdan boshlab uni ilmlar va axloq-odob asoslariga o'rgatib borish lozim".

Abu Ali Ibn Sino azaliy an'analarga tayangan holda Qur'oni Karimni, dinning maqsadi va tilning grammatik qonun-qoidalarini qunt bilan o'rganishdan boshlashni ma'qul deb biladi. "Bola asta-sekin o'z ona tilini o'rganib olib, boshqa fanlarni ham o'rgana boshlaydi", degan fikrlarni bildiradi. Abu Ali Ibn Sino insonparvar, ma'rifatparvar olim sifatida inson axloqiy ravnaqining cheksiz imkoniyatlarini e'tirof qiladi. Lekin uning ro'yobga chiqishi shaxs va jamiyatning imkoniyatlari bilan bog'liqdir.

Yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari tarbiya jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya jarayonida shaxsning intellektual va hissiy-irodaviy faolligi muhim ahamiyatga ega. Yordamchi maktablardagi tarbiyaviy jarayon shaxsning ehtiyoj va motivlarini qanchalik boyitsa va qayta qursa, uning intellektual hamda hissiy-irodaviy faolligini qancha ko'proq rivojlantirsa, bu jarayonning samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Shu sababli yordamchi maktabda tarbiya ishining asl mohiyati bola bilan o'tkaziladigan turli suhbatlarda emas, balki bola hayotini tashkil etishdadir. Tarbiya ishi avvalo tashkilotchining ishidir. Xulq-atvor ko'nikmalari va odatlari bamisoli insonning zaruriy ehtiyojiga aylangan harakatlar va xulq-atvorning barqaror shakllari bo'lib, ularning bajarilmasligi noxush, ko'ngilsiz, ba'zan og'ir oqibatlariga olib keladi.

Yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning asab tizimidagi bu xususiyatni bilgan pedagoglar bir xil harakatlarni, bir xil ishlarni ko'p marta takrorlash asosida yordamga muhtoj o'quvchilarda xulq-atvorning mustahkam ko'nikma va odatlarini hosil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Yordamga muhtoj bo'lgan bola bilan uy sharoitida korreksion-pedagogik ishlarni amalga oshirish, bola shaxsini rivojlantirish va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan uslubiy-pedagogik yondashish, turli xil mashg'ulotlarni o'tkazish, oila a'zolari va nuqsonli bola o'rtasida o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, nuqsonli bola kelajakda o'z hayotiy o'rnini topa olishiga qaratilgan korreksion-pedagogik ishlarni amalga oshirish naqadar zarurligini ta'kidlab o'tish lozim. Ota-onaning o'zi maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, yuqoridagi masalalarga jiddiy yondashishi zarurdir.

Ma'lumki, farzand tarbiyasida ota-onalar oldida ko'plab muammolar vujudga keladi. Lekin rivojlanishida nuqsoni bor bolani tarbiyalashda bu muammolar yanada chuqurlashadi va murakkablashadi. Bunday muammolar va murakkabliklar orasida uy sharoitida bola bilan turli xil mashg'ulotlarni o'tkazish, bola shaxsining rivojlanishi va uning tarbiyasida korreksion ishlarni amalga oshirish, oila a'zolari va nuqsonli bola o'rtasida o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, nuqsonli bola kelajakda o'z hayotiy o'rnini topa olishiga qaratilgan korreksion-pedagogik ishlarni amalga oshirishda oila, maktab va mahalla hamkorligi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ko'rsatib o'tilgan muammolarni to'g'ri hal etish va nuqsonli bola tarbiyasidagi muhim vazifalarni amalga oshirish uchun ota-ona o'zi maxsus bilim va ko'nikmalarga hamda pedagogik savodxonlikka ega bo'lishi kerak.

Nogiron bolani oilada tarbiyalash, kamol toptirish murakkab muammolardan biri bo'lib, unda eng asosiysi tarbiyachi — onadir. Onadan yuksak e'tibor, g'amxo'rlik, bardosh, mehr, ishonch, bilim, matonat, sabr-toqat, xushmuomalalik talab etiladi. Shuningdek, ona o'z bolasining rivojlanishi haqidagi ma'lum bilimlarga ega bo'lmog'i, tibbiy xodimlar va defektolog-o'qituvchilar bilan uzviy hamkorlikda bolani tarbiyalash va hayotga moslashtirishga oid bilimlarga ega bo'lmog'i lozimdir. Tadqiqotlarni o'rganish va ularni tahlil etish natijasida yordamga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash jarayoni va tarbiyada oila hamda maktab hamkorligi tizimli yondashishni talab qiladigan o'ta murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-pedagogik muammodir, degan xulosaga keldik. Yordamga muhtoj bo'lgan o'quvchilarga tarbiya berish darajasini oshirish uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida oila va maktabning o'zaro hamkorlikda va izchil olib boriladigan faoliyatiga bog'liq.

Xulosa

Alohida yordamga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalashda oilaning o'rni hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Bola shaxsining shakllanishi, uning ijtimoiy muhitga moslashuvi hamda hayotiy ko'nikmalarni egallashi avvalo oiladagi muhit, ota-ona munosabatlari va ularning pedagogik savodxonligiga bog'liqdir. Oilada yaratilgan mehr-oqibat, tushunish va qo'llab-quvvatlash muhiti bola rivojlanishining asosiy psixologik tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun aynan oilaviy qo'llab-quvvatlash yanada muhim hisoblanadi, chunki ular jamiyatga moslashish jarayonida ko'proq individual yondashuv va doimiy e'tiborga muhtoj bo'ladi. Shu bois ota-onalarning maxsus pedagogik bilimlarga ega bo'lishi, korreksion ishlarni to'g'ri tashkil etishi hamda mutaxassislar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi zaruriy omillardan biridir. Shuningdek, oila, maktab va mahalla o'rtasidagi uzviy hamkorlik bolalarning ijtimoiylashuvi va ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Bunday hamkorlik tizimi bolalarning imkoniyatlarini rivojlantirish, ularni jamiyatda o'z o'rnini topishga tayyorlash hamda mustaqil hayotga moslashishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. — Toshkent: O'zbekiston, 2017. — 48 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. — Toshkent: O'zbekiston, 2017. — 592 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 1992.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktabrdagi 638-son *Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida**gi qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. — 2021. — 13 dekabr. — № 49. — 1195-modda.
5. Nurkeldiyeva D. A. Aqli zaif bolalarning maktab metodlari nutqiy tayyorgarligini aniqlash: ped. fan. nomz. dissertatsiyasi. — Toshkent, 2001. — 23 b.
6. Nurmuhamedova L. Sh. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari: ped. fan. nomz. dissertatsiyasi. — Toshkent, 2005. — 23 b.
7. Nurmuhamedova L. Sh. Nogiron bolalarni tarbiyalashda oila va maxsus muassasa hamkorligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslari: monografiya. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. — 228 b.
8. Rizashova M. B. Serebral falaj bolalar bilan korreksion ish jarayonida defektologlar va ota-onalar hamkorligi: ped. fan. nomz. dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2008.
9. Sagatov M. I. Matematika o'qitish maxsus metodikasi. — Toshkent, 2008. — 104 b.
10. Sagatov M. I. Yordamchi maktabda matematika o'qitish uslubiyoti. — Toshkent: O'qituvchi, 2008. — 238 b.
11. Mamedov K., Sagatov A., Po'latova P. Oligofrenopedagogika asoslari. — Toshkent, 1994.
12. Muminova L., Nurkeldiyeva D. Pedagogik-psixologik diagnostika. — Toshkent: ILM ZIYO, 2012.
13. Muminova L. R., Amirsaidova Sh. M., Mamarajabova Z. N. va boshq. Maxsus psixologiya. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.
14. Shomaxmudova R. Sh., Nurmuhamedova L. Sh. Imkoniyati cheklangan bolalarni oilada tarbiyalash: ota-onalar uchun ilmiy-uslubiy qo'llanma. — Toshkent, 2013. — 78 b.
15. Shoumarov G. B. Sotsial-psixologik muammolar yosh oilalarda maxsus maktab bitiruvchilari bilan bog'liq: psixol. fan. dokt. dissertatsiyasi. — Moskva, 1990. — 516 b.